

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
URGANCH FILIALI**

Kompyuter injiniringi fakulteti
Axborot ta'lim texnologiyalari kafedrası

**Moodle dasturi yordamida «ISpring dasturida masofaviy ta'lim kurslari uchun
nazoratlarni tashkil qilish» mavzusida**

KURS ISHI

Rahbar:
Axborot ta'lim texnologiyalari
kafedrası o'qituvchisi
F. Masharipova
«___» _____ 2016 y.
Bajardi:
921-14 guruh talabasi
M. Sobirova
«___» _____ 2016 y.

Urganch-2016 yil.

MUNDARIJA

Kirish.....	2
I-BOB. Nazariy qism va masalaning do'zarbligi.....	
1.1.Masofaviy o`qitish nima?.....	4
1.2. Masofaviy o`qitish modellari.	7
1.3. Moodle dasturi haqida ma'lumot.	10
1.4. Masalaning qo'yilishi.	
II-BOB. Asosiy qism.....	20
2.1 ISpring dasturida ishlash va funksiyalari.....	20
2.2Masofaviy ta'lim kursida foydalanuvchilarni iSpring dasturida test asosida baholash.....	27
2.3. Moodleda test tuzish texnologiyasi.....	30
Xulosa.....	39
Foydalanilgan adabiyotlar.....	40
Ilova.....	41

Kirish

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda O'zbekiston ta'lim tizimi oldida turgan vazifalardan biri -aholining keng tabaqasiga sifatli va tushunarli ta'lim berishdan iborat. Ko'zlatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, Respublikamizda an'anaviy ta'lim tizimi uddasidan chiqmaydigan, ta'lim xizmatiga zarurat tug'ilyotgan shaxslar kontingenti paydo bo'lmoqda.

Ma'lumki, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1-chaqiriq IX-sessiyasida I.A. Karimov hayotimizni hal qiluvchi muhim masalalar qatorida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni zamon darajasiga ko'tarish, barkamol avlodimiz kelajagiga dahldor qonunlar loyihasi ustida batafsil to'xtalib o'tdi. Mustaqil respublikamiz rivoji, taraqqiy etishi eng ilg'or davlatlar safida bo'lishi uchun ya'ni bugungi jamiyatimiz oldiga qo'ygan buyuk maqsadlarga ezgu niyatlarga erishish, jamiyatimizni yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqbolli amalga oshirilayotgan islohotlar taqdiri ko'p jihatdan zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq.

Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funktsiyalarni bajaradi.

Masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagi bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o'qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, o'qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertikal o'quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo'ladi.

Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'lmagan, masalan, sog'ligi taqoza etmaydigan, mutaxassicligini

o`zgartirish niyati bo`lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo`lgan kishilar uchun masofaviy o`qitish qulay o`qitish shakli hisoblanadi.

Masofaviy o`qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya`ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog`liq. Masalan, an`anaviy bosma usuliga asoslangan o`qitish vositalari (o`quv qo`llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferentsiyalar ma`lum vaqt orasida o`zaro muloqotda bo`lishga, elektron pochta to`g`ri va teskari aloqa o`rnatishga, ya`ni xabarlarni jo`natish va qabul qilishga mo`ljallangan. Oldindan tasmaga muhrlangan videoma`ruzalar talabalarga ma`ruzalarni tinglash va ko`rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o`zaro teskari aloqa orqali o`qitish imkonini beradi.

I-BOB Nazariy qism va masalaning do'zarbligi

1.1. Masofaviy o`qitish nima?

Darhaqiqat, masofaviy o`qitish nima, undan uzluksiz ta`lim tizimida qanday foydalanish mumkin. Uning qanday shakl va modellari mavjud?

Insoniyat XX asr nihoyasida bir turkum muammolarga duch keldikim, ular bevosita axborot telekommunikatsiya sohasidagi jiddiy o`zgarishlar, xususan axborot texnologiyalarining jadal sur`atlar bilan rivojlanishiga bog`liq. Ta`lim, ishlab chiqarish va kishilik jamiyatining turli jabhalariga yangi axborot kommunikatsiya vositalari kirib kela boshladi. Internet global kompyuter tarmog`ini rivojlanishi butun dunyo ta`lim tizimini takomillashtirishning yangi yo`nalishlarini ochilishiga sabab bo`ldi. Birinchidan, o`quv muassasalarining texnik ta`minotini keskin o`zgarishi, dunyoviy axborot resurslarga keng yo`l ochilishi o`qitishning yangi shakl va usullaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqardi.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta`lim jarayoniga kirib kelishi an`anaviy o`qitish usullariga qo`shimcha ravishda yangi o`qitish shakli - masofaviy o`qitish yaratilishiga omil bo`ldi.

Masofaviy ta`limda talaba va o`qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o`zaro maxsus yaratilgan o`quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo`ladilar. Internet texnologiyasini qo`llashga asoslangan masofaviy o`qitish jahon axborot ta`lim tarmog`iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o`zaro aloqa tamoyiliga ega bo`lgan muhim bir turkum yangi funktsiyalarni bajaradi.

Masofaviy o`qitish barcha ta`lim olish istagi bo`lganlarga o`z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o`qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o`quv-uslubiy materiallarni o`zlashtiradi, nazoratdan o`tadi, o`qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertikal o`quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo`ladi.

Ma`lum sabablarga ko`ra, ta`lim muassasalarining kunduzgi bo`limlarida tahsil olish imkoniyati bo`lmagan, masalan, sog`ligi taqoza etmaydigan, mutaxassicligini

o'zgartirish niyati bo'lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo'lgan kishilar uchun masofaviy o'qitish qulay o'qitish shakli hisoblanadi.

Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya'ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog'liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferentsiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarini jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan. Oldindan tasmaga muhrlangan videoma'ruzalar talabalarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o'zaro teskari aloqa orqali o'qitish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ta'lim jarayonida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta'riflarni keltirib o'tamiz.

Masofaviy ta'lim - masofaviy o'qitishga asoslangan ta'lim.

Masofaviy o'qitish – o'zaro ma'lum bir masofada Internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o'quv jarayonlari komponentlari – maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o'qitish usullariga asoslangan talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat.

Masofaviy o'qitish tizimi – masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Masofaviy o'qitishning pedagogik texnologiyalari – tanlangan o'qitish kontseptsiyasiga asoslangan masofaviy ta'limning o'quv-tarbiyaviy jarayonini ta'minlovchi o'qitish metodi va uslublar majmuasi.

Keys-texnologiya – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, masofaviy ta'limda matnli, audiovizual va mul timediali (keys) o'quv uslubiy materiallar majmuasi qo'llanishga asoslanadi.

TV-texnologiya – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, u talabalarga o'quv-metodik ma'lumotlarni televidenie vositasi yordamida yetkazishga

xizmat qiladi va tashqi aloqali ixtiyoriy interaktiv usullardan biri bilan o`rnatishga asoslanadi.

Masofaviy o`qitishning ta`lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo`lib, ular quyidagi qo`llanish shartlari bilan farqlanadi:

geografik shartlar (masalan, mamlakat territoriyasi, markazdan uzoqlikda joylashuvi, iqlimi);

mamlakatning axborotlashuvi va komp yuterlashtirish umumiy darajasi;

kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi;


ta`lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo`llanish darajasi;

ta`limda qo`llaniladigan an`analari;

masofaviy o`qitish tizimi uchun ilmiy pedagog kadrlar mavjudligi va ularning salohiyati va boshqalar.

1.2. Masofaviy o`qitish modellari.

Masofaviy o`qitish modellari 1.1-rasmda keltirilgan. Birlamchi model . Masofaviy o`qitishning bu shaklida kunduzgi bo`limda bevosita mashg`ulot o`tkazish shart emas, barcha o`qitish ma`lum masofada tashkil etiladi. Lekin ta`lim oluvchilar unga birkirilgan o`qituvchilar bilan doimiy aloqada bo`ladilar. Ta`lim oluvchilarga konsultativ yordam va yakuniy imtihon topshirish uchun mahalliy vakillar tashkil etiladi. Bunda o`quv jarayonining shakl va usullari ta`lim oluvchi va talaba tomonidan erkin tanlanadi, o`quv mashg`ulotlari jadvali va o`qitish vaqti chegaralanmaydi. Ko`pchilik ochiq universitetlarda ta`lim o`qitishning birlamchi modeli asosida qurilgan, masalan, Buyuk Britaniya ochiq universitetida masofaviy o`qitishning ushbu modelidan foydalaniladi ([http:// www.open.ac.uk](http://www.open.ac.uk)).



1.1-rasm. Masofaviy o`qitish modellari

Ikkilamchi model. Ta`lim muassasasida o`qish ham kunduzgi ta`limda, ham qisman kunduzgi va qisman masofaviy ta`limda olib boriladi. Har ikkalasida dars jadvali va o`qitish dasturi bir xil.

Ta`lim oluvchilar uchun nazorat bir xil kriteriya asosida baholanadi. Ta`lim muassasasida qo`llaniladigan masofaviy o`qitishning bu ikkilamchi modeli hamma vaqt ham foydali bo`lavermaydi, chunonchi o`qitishning asosiy qismi ta`lim oluvchilar

tomonidan qoplanadi. Masalan, ikkilamchi modeldan Avstraliyaning universitetlarida foydalanib kelinmoqda ([http:// www.une.edu.au](http://www.une.edu.au)).

Aralashgan model . Bu model masofaviy o`qitishning turli shakllarini qamrab oladi, to`g`rirog`i turli masalalar integratsiyasi, masalan, ta`lim oluvchilar o`quv materialining ma`lum bir qismini masofaviy o`qitish bilan ketma-ket, boshqa qismini parallel ravishda kunduzgi bevosita o`qitish orqali oladilar. Ayrim mashg`ulotlar virtual seminarlar, namoyish (prezentatsiya), ma`ruza shaklida olib boriladi. Ta`lim muassasasi qanchalik axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta`minlangan bo`lsa, o`qitish shakllari turli-tuman ko`rinishda tashkil etilishi mumkin. O`qitishning bu integratsiya shakllaridan Massey va Yangi Zelandiya universitetlarida foydalanilmoqda (<http://massey.ac.nz>).

Konsortsium. Ushbu model ikkita ta`lim muassasasining o`zaro aloqasida olib boriladi, ya`ni o`quv materiallarini ishlab chiqarish va ularni masofaviy o`qitishda ayrim funktsiyalarni o`zaro bo`lib olishga asoslanadi. Birinchi muassasa masofaviy o`qitish uchun o`quv materiallarini ishlab chiqish bilan shug`ullansa, ikkinchi muassasa virtual o`quv guruhlarini o`qitish vositalari yoki masofaviy o`qitish dasturi ijrosini ta`minlaydi. O`zaro aloqada, ishlovchi bu muassasalar universitet, yohud ta`lim bilan shug`ullanuvchi markazlar, fakul tetlar va hatto tadbirkorlik va davlat tashkilotlari ham bo`lishi mumkin.

Konsortsium qat`iy markaziy boshqarish, xususiy mulk va mualliflik huquqi belgilangan tarzda ta`minlangan holda samarali natija beradi.

O`qitishning bu modelidan masalan, Kanadada ochiq O`quv agentligida foydalanib kelinmoqda (<http://www.ola.bc.ca>).

Franchayzing. Masofaviy o`qitishning franchayzing tamoyiliga asoslangan bu modelda muloqotdagi ta`lim muassasalari o`zaro o`zlari yaratgan masofaviy kurslarni almashadilar. Ta`lim xizmati bozorida yaxshi deb topilgan mahsulot egasi bo`lgan ta`lim muassasasi boshqa ta`lim muassasalariga yaratgan o`quv kurslarini beradi, yoxud masofaviy o`qitish orqali mashg`ulotlar olib boriladi. Ushbu modelning xarakterli jihati shundaki, ma`lum bir ta`lim muassasasida o`qish niyati bo`lgan talaba

yetuk oliy muassasaning konsortsiumi orqali o`sha hajmda, lekin yuqori sifatli bilim va o`qish nihoyasida diplom olish imkoniga ega bo`ladi.

Franchayzing modeli asosida o`qish tashkil etilgan ta`lim muassasalariga ochiq universitet - Biznes oliy ta`lim muassasasi va ular bilan muloqotda bo`lgan Sharqiy yevropa universitetlarini keltirish mumkin.

Validatsiya. Masofaviy o`qitishning bu modeli keng tarqalgan o`qitish shakllaridan hisoblanadi. Muloqotda bo`lgan barcha ta`lim muassasalari o`zaro teng darajada masofaviy o`qitish bo`yicha bitim tuzadilar. Ular birgalikda masofaviy o`qitish dasturi va kursini yaratadilar, beriladigan diplom va sertifikatlar bir xil darajada tan olinadi.

Yiroqlashgan auditoriya. Ushbu modelda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari keng qo`llaniladi. Ma`lum bir ta`lim muassasasida tashkil etilgan o`quv kurslari, ma`ruza va seminarlar sinxron teleko`rsatuv, videokonferentsiya, radioaloqa tarzida telekommunikatsiya kanallari orqali talabalar yig`ilgan yiroqdagi auditoriyalarga namoyish qilinadi. Bu vaziyatda o`qituvchi talabalar yig`ilgan yirik auditoriya bilan ishlaydi.

Masofaviy o`qitishning bu modelidan AQShning Viskonsin universiteti, xuddi shuningdek, Xitoyning Markaziy radiova televidenie universitetida foydalanib kelinmoqda.

Loyihalar. Masofaviy o`qitishning ushbu modelidan davlat ahamiyatiga molik yirik masshtabli loyihalarni joriy qilishda foydalaniladi. Ushbu modelda asosiy rol o`quv materiallarini yaratgan malakali kadrlar, o`qituvchilar, olimlar yig`ilgan ilmiy-metodik markazga beriladi. Markazda yaratilgan masofaviy kurslar u yoki bu mamlakatning katta auditoriyasiga namoyish qilinadi. Unda o`qitish mavsumiy bo`lib, o`z maqsadiga erishilgandagina tugatiladi. Masofaviy o`qitishning bu kursiga misol qilib ekologiya, qishloq xo`jaligi bilan bog`liq bo`lgan yangi agrotexnik usullar bilan tanishtirishga oid kurslarni keltirish mumkin. Masofaviy o`qitishning loyihalash modelidan Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro tashkilotlarida keng foydalanilmoqda.

1.3. Moodle dasturi haqida ma'lumot

Dastlab kurs administrator tomonidan yaratilib, o'qituvchining anketasi kiritilgan bo'ladi. O'qituvchi o'zining login paroli yordamida ushbu kursga kiradi va u yerda o'zining sozlovlarini amalga oshiradi. Yaratilgan bo'sh shablonni o'qituvchi to'ldiradi va bu quyidagicha amalga oshiriladi:

Kursni o'rnatish uchun avval o'qituvchining login hamda paroli bilan kirib, kerakli kursni tanlaymiz. "settings" blokidan "Setting" ni tanlaymiz.



2.2.1-rasm. Kurs tashkil etishni boshlash.

Bunda bizga kurs sozlovlari oyna ochiladi. Quyida kursning barcha sozlovlari keltirilgan.

Category – kategoriya

Course full name – Kursning to'liq nomi

Course short name – Kursning qisqacha nomlanishi. Bu yerda 1 so'zdan iborat kursning qisqacha nomi kiril yoki lotin alifbosida kiritiladi. Bunda abreviaturalardan foydalanish mumkin, yoki bir necha so'zning pastki chiziq orqali birlashtirish orqali yozish mumkin. Masalan: BDU, fzika_kurs,... Bunda alfavitga kirmaydigan turli belgilardan foydalanmaslik maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Course ID number – Kursning identifikator raqami. U faqat tashqi sistemalarda qo'llashdagina ishlatiladi. Bu kod Moodledan tashqarida namoyon qilinmaydi. Bu maydonni bo'sh qoldirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Summary – Rezyume yoki qisqacha tasnif. Bu tasnif dasturning barcha foydalanuvchilariga ko'rinib turadi, shu jumladan mehmonlarga ham. HTML redaktori yordamida formatlashni to'liq bajarish mumkin. Bunda pastki va yuqorigi indeks, smaylik va rasmlarni ham joylashtirish mumkin.

Format – Kurs formati.

Number of weeks/topics – Haftalar yoki mavzular soni. Unda kursda mavjud haftalar yoki mavzular soni aks etadi. Uning maksimal qiymati 52 ga teng, avtomatik holda 10 o'rnatilgan bo'ladi.

Course start date – Kursning boshlanish vaqti. Agar siz "Format-kalendar" ni qo'llagan bo'lsangiz, birinchi hafta shu sana bilan boshlanadi. Boshqa formatlar uchun bu yerdagi sana ahamiyat kasb etmaydi. Faqatgina bu sana registratsiya vaqtiga oldin qaysi foydalanuvchi ro'yxatdan o'tganligini aniqlashda ishlatiladi.

Hidden sections – Yashirin seksiyalarning ko'rinishi. Bu sozlov foydalanuvchilarga yashirin seksiyalarning ko'rinishini belgilashda ishlatiladi. Avtomatik holda bu yerda yashirin qismlar kulrang ko'rinishda, yig'ilgan holda namoyish etiladi. Bunday seksiyaning qismlari talabalara ko'rinmaydi. Bunday rejim format-kalendarda yaxshi samara beriladi. Bunda talabalar o'tgan va qolgan haftalarni nazorat qiladilar. Agar bu bo'limdan "to'la ko'rinmas" holi tanlangan bo'lsa, unda bu qismlar foydalanuvchi-talabalarga umuman ko'rinmaydi va ular ko'rinmas seksiyalarning mavjudligini mutlaqo bilmaydilar.

- **Hide sections are shown in collapsed** form – barchasi qisqartirilgan ko'rinishda.

- **Hide sections are completely invisible** – barchasi ko'rinmas holda.

News items to show – Namoyish qilinuvchi yangiliklar. Bu yerda forumdagi oxirgi nechta maqolaning namoyish qilinishi ko'rsatiladi. Agar uning qiymati 0 deb ko'rsatilsa, bu yangiliklar bloki ko'rsatilmaydi.

Show gradebook to students – Talabalarning baholari. Bu sozlov talabalarga o'zlarining baholarini ko'rishga ruxsat etilgan yoki etilmaganligini belgilaydi. Uning boshlang'ich qiymatida “yes” ya'ni ha turadi. Agar “no” ya'ni yo'qni o'rnatdik, talabalar baholarini ko'ra olmaydilar.

Show activity reports – Faoliyat haqida ma'lumot. Agar ha qiymati o'rnatilgan bo'lsa, talabalar bu kursdagi faoliyatlari haqidagi ma'lumotlarni olib biladilar. Unda foydalanuvchining to'la faoliyati aks etiladi. Ammo bu bo'limda yo'q qiymatini o'rnatish tavsiya qilinadi. Chunki bu ma'lumotlarni to'plab borish serverga qiyinchilik tug'diradi. O'qituvchi har bir talabaning faoliyat varaqasini olish huquqiga ega.

Maximum upload size – Yuklanishi mumkin bo'lgan maksimal hajm. Bu sozlov kursning hajmi qancha bo'lishini belgilaydi va bu kurs hajmi belgilangan hajmdan ortmaydi. Keyinchalik kursning har bir elementining hajmini belgilash mumkin.

Is this a meta course? – Bu meta kursmi? Tavsiya qilinadigan qiymati “yo'q”.

Agar “ha” qiymati ko'rsatilsa, bu kursda talabalar boshqa ma'lum kurslarda a'zo bo'lsa, bu kursga avtomatik registratsiyadan o'tadi.

Metakurs mavjud kurslarni guruhlariga birlashtirish uchun ishlatiladi.

Start date – Boshlang'ich sana. Talabalarning ro'yxatdan o'tadigan boshlang'ich sana. Uning qiymatini “taqiqlash” qilib o'rnatish tavsiya qilinadi.

End date – Oxirgi sana. Talabalarning registratsiyasi tugatiladigan sana. Uning qiymatini “taqiqlash” qilib o'rnatish tavsiya qilinadi.

Enrolment duration Time – Ta'lim vaqti davomiyligi. Uning qiymatini 1 kundan boshlab 365 kungacha belgilash mumkin.

Notify – Xabarnoma. Boshlang'ich qiymatni o'zgartirmaslik tavsiya etiladi.

Notify students – Talabalarga xabarnoma. Boshlang'ich qiymatni o'zgartirmaslik tavsiya etiladi.

Threshold – Chegara. Boshlang'ich qiymatni o'zgartirmaslik tavsiya etiladi.

Group mode – Guruh rejimi. Guruh uchun uchta rejimdan birini tanlashingiz mumkin.

- **Guruhlar mavjud emas** -bunda talabalar guruhlariga bo'linmaydilar. Bunda ularning har biri bir butun guruhni tashkil qilinadi.

- **Alohida guruhlar** -talabalarning har biriga ularning guruhi yagona deb tasavvur qiladi. Boshqa guruhlarining faoliyati ularga ko'rinmaydi.

- **Ruxsat etilgan guruhlar** -talabalar o'z guruhi doirasida faoliyat ko'rsatadi. Ammo ularga boshqa guruhdagi talabalarning faoliyati ham nomoyish qilinadi.

Force – Majburiy. Guruh rejimida ishlovchi har bir kurs elementi uchun uning shaxsiy rejimini belgilash mumkin.

Availability –Ruxsat etilish darajasi. Bu sozlov talabadan kursni to'liq yashirish imkonini beradi. Kurs hechbir ro'yxatda ko'rinmaydi. U faqat administrator va o'qituvchigagina ma'lum bo'ladi. Hatto talabalar to'g'rida-to'g'ri URL manzil orqali murojaat qilganda ham, ular rad javobini eshitadilar.

Enrolment key – Kalit so'z. Kursga begona kishilarning kirishini oldini oladi.

- Bo'sh qiymat ixtiyoriy sayt foydalanuvchisining kursga yozilishi mumkinligini bildiradi.

- Agar bu maydonga so'z yoki gap kiritilsa, har bir talaba kursga a'zo bo'lish uchun bu so'zni yozishi kerak bo'ladi.

Kalit so'z talabalarga e-mail manzili orqali yoki to'g'ridan to'g'ri suhbatda, leksiyalarda aytilishi mumkin.

Agar keraksiz foydalanuvchilar kalit so'zni bilb, kursga kirishgan bo'lsa, qatnashchilar ro'yxatidan foydalanib ularni kursdan chiqarib yuborish mumkin. So'ng kalit so'z o'zgartiriladi. Ro'yxatdan o'tgan boshqa talabalarga bu hechqanday ta'sir o'tkazmaydi.

Guest access – Muehmonlarga ruxsat. Mehmonga ruxsat bermaslik maslahat beriladi. Chunki bunda interning ixtiyoriy “Mehmon bo'lib kirish” tugmasidan foydalanuvchisi bu kursga kirishi mumkin.

Mehmon bo'lib kirgan har bir foydalanuvchi faqatgina ma'lumotlarni o'qish huquqiga ega. Ya'ni u talabalarning yoki o'qituvchining faoliyatiga hechqanday ta'sir ko'rsatmaydi.

Mehmon bo'lib kirish imkoniyati kursni namoyish qilish uchun yaxshi imkoniyathamdir. Bu talabalarga kursga yozilishdan oldin unga kirish kerakmi yoki yo'qligini bilish uchun ham ishlatiladi.

Mehmon bo'lib kiruvchilarni sonini cheklash ham mumkin. Bunda faqat kalit so'zni biluvchi foydalanuvchilargagina ruxsat berish mumkin.

Your word for 'Manager' – “Menejer” uchun so'zingiz. Boshlang'ich qiymatni o'zgartirmaslik tavsiya etiladi.

Your word for 'Teacher' – “O'qituvchi” uchun so'zingiz. Boshlang'ich qiymatni o'zgartirmaslik tavsiya etiladi.

Your word for 'Non-editing teacher' – “Tahrirlamaydigan o'qituvchi” uchun so'zingiz. Boshlang'ich qiymatni o'zgartirmaslik tavsiya etiladi.

Your word for 'Student' – “Talaba” uchun so'zingiz. Boshlang'ich qiymatni o'zgartirmaslik tavsiya etiladi.

O'qituvchiga test savollarining to'liq ro'yxati bilan ishlash noqulay. Bunda test savollarini kategoriya deb nomlanuvchi guruhlariga ajratish qulay.

Fayllarni papkalarga joylashtirilgani singari test savollari kategoriyalarda joylashtiriladi. Kategoriyalar iyerarxiyaga ega bo'lishi mumkin, ya'ni bir kategoriya boshqasiga joylashtirilishi mumkin.

Odatda testlar mazmuniga ko'ra kategoriyalarga ajratiladi. Masalan, “o'zgaruvchilar va o'rzgarmaslarga oid test” kategoriyasiga dasturlashning faqat shu mavzusiga oid savollar joylashtiriladi.

Guruhlariga ajratishning yana bir sababi shundaki, tasodifiy savol tanlashga faqat kerakli savollarga murojaat qilinadi.

Tasodifiy savollar – bu har bir talabaga berilgan mavzu bo'yicha savollar bazasidan tasodifiy savol tanlab berish imkoniyatidir. Bunday imkoniyatning qo'shilganligi sababli talaba har gal test ishlaganida turli savollar to'plamiga ega bo'ladi. Bu imkoniyat talabalarning bir-biridan ko'chirishini oldini oladi va obyektiv baholash imkoniyatini yaratadi. Tasodifiy tanlash amalga oshiriladigan kategoriyalardagi savollar to'plami qancha ko'p bo'lsa, talabalarning mavzuni o'rgangandan ko'ra test savollarini javobini yodlashining oldi olinadi.

Kategoriylarni yaratish va tahrirlash uchun “Upravleniye” blokidagi “Voprosi” bo’limi tanlanadi va “redaktirovaniye” tugmasi bosiladi.



Добавить категорию ?

Доступные категории	Название категории	Информация о категории	Опубликовать	Действие
Примеры тестов	Тесты с картинками	Примеры тестов с изображениями	Нет	Добавить

Редактировать категории ?

Название категории	Информация о категории	Вопросы	Опубликовать	Удалить	Порядок	Доступные категории
Кинематика	Кинематика точки, тела	115	✓	✕	↓	Главная
По умолчанию	Установленная по умолчанию категория для вопросов.	8	✕		↑ ↓	---

2.2.2-rasm. Kategoriyalarni sozlash oynasi.

Oynaning yuqori qismidagi banddan foydalanib yangi kategoriya qo’shish, pastgi qismidan esa, mavjud kategoriyalarni tahrirlash mumkin.

Word matn muhariri bir tipli test savollarini tuzish jarayonni tezlashtiradi, chunki wordda bir xil tipli savollarni nusxalab olib, uni matnning istalgan joyida xohlagancha qo’yib, tahrirlash mumkin. Test savollarini internet tizimiga ulanmagan kompyuterda tuzish mumkin. Word muharirining afzalligi shundaki, u orfografiyaning to’g’riligini tekshiradi.

Ushbu usuldan foydalanib, savollarni tuzish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. Mikko Rusama tomonidan yaratilgan maxsus shablon asosida word faylini tuzish.
2. Ushbu faylda test savollarini tuzib, GIFT formatiga export qilish.
3. GIFT formatli savollarni kerakli kursga import qilish.

Fayl shablonini ochish va yuklash.


Fayl shablonini moodle.org (http://moodle.org/file.php/25/files/Moodle_v09_FullRussian.dot) saytidan yuklash mumkin.

Fayl shablonini local kompyuteringizda saqlab qo’ying. Bu shablonlarni wordning boshqa shablonlari saqlangan joyda saqlab qo’yish maqsadga muvofiq

(jimlikdagi holatda ushbu papka **c:\Documents and Settings\Имяпользователя\Application Data\Microsoft\Шаблоны** nomidga ega). Bu holda siz ushbu shablon asosida menyudan **Файл>Создать>Шаблонынамоемкомпьютере> Moodle_v09_FullRussian** ni tanlab olib fayllarni hosil qilishingiz mumkin. Agar siz shablonni boshqa papkaga yozgan bo'lsangiz, u holda uni boshqa ixtiyoriy fayl shaklida ochishingiz mumkin.


Ammo, fayl shablonini qayerda yozishingizdan qat'iy nazar, uni ochishdan oldin wordda yuqori darajadagi himoya xavfsizligi yuklmaganligiga ishonch hosil qilishingiz lozim. Aks holda, ushbu shablondagi makroslar o'chiriladi hamda shablon o'z funksiyasini bajarmaydi.

Demak, menyudan **Сервис>Макрос>Безопасность>Средняя>ОК** tanlanishi lozim.




2.2.3-rasm. Xavfsizlik oynasini boshqarish

O'rta darajadagi xavfsizlikni tanlash makrosi mavjud bo'lgan fayllarni ochish jarayonida foydalanuvchiga tegishli ogohlantirish berish imkonini beradi, chunki makroslar – programmalardir, ular orasida viruslar bo'lishi mumkin. Foydalanuvchi shubxalangan taqdirda, u makroslarni o'chirib qo'yishi mumkin. Ushbu shablon faylida makroslar foydali bo'lganligi uchun ushbu faylni ochish jarayonida **Неотключать макросы** tugmasini bosish lozim.



2.2.4-rasm. Makrosni o'chirmaslikni boshqarish oynasi.

Moodle_v09_FullRussian.dot shablon faylini ochgandan so'ng, test savollarining namunalari ko'rinadi. Ular ushbu shablonda savollar qanday ko'rinishga ega ekanligi uchungina ko'rsatilgan. Ular bilan tanishgandan so'ng, ularni o'chirib, yangi test savollarini tuzishga o'tish mumkin.



2.2.5-rasm. Word oynasi.

Yangi savolni kiritishdan oldin **“Вопросы”** menyusi tanlanadi, hamda quyidagi 6 tip savollardan biri tanlanadi:

1. Альтернатив (верно/неверно). Bu yerda talabalar tomonidan berilgan ikki to'g'ri yoki noto'g'ri javoblardan birini o'ylab, tanlash amalga oshiriladi. Qulay bo'lishi uchun bu yerda va quyida keltirilgan boshqa tipdagi savollarda to'g'ri javoblar yashil rangda, noto'g'ri javoblar esa, qizil rangda keltiriladi.

2. Насоответствие. Savolning o'zi kiritilgandan keyin ikki chap va o'ng ustunlar tashkil etiladi. (Masalan mamlakatlar hamda ularning poytaxtlari ro'yxati) Chap ustun ko'k rangda, o'ng ustun esa, sariq rangda bo'ladi. Talabalar ikki ustun elementlarini to'g'ri mos qo'yishlari lozim. Ro'yxat uchta elementdan kam bo'lmasligi tavsiya etiladi. Ro'yxatni kiritish jarayonida bir elementdan ikkinchi elementga o'tish **Enter** tugmasini bosish yordamida amalga oshiriladi.

3. Числовойвопрос. Savol kiritilgandan so'ng enter tugmasini bosing hamda uning javobini son ko'rinishda tasvirlang. Bunda o'nli kasrning butun qismini kasr qismidan ajratish uchun (.) nuqta belgisidan foydalaniladi.

4. Короткийответ. Savolning matnini kiritgan so'ng, **Enter** tugmasini bosing hamda javobni kiriting. Agar javoblar bir nechta bo'lsa, u holda har bir javob alohida satrga yoziladi. Javoblar to'g'ri hamda noto'g'ri bo'lishi mumkin. Javobning statusini o'zgartirish uchun **Верный/Неверныйответ** tugmasidan foydalaniladi.

5. Множественныйвыбор. Ushbu savolning to'g'ri javobi bir yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Avval savol matni kiritiladi, so'ng javobi kiritiladi. Javobning statusini o'zgartirish uchun **Верный/Неверныйответ** tugmasidan foydalaniladi. Agar to'g'ri javoblar bir nechta bo'lsa, to'g'ri javoblarga musbat og'irlik koefitsiyenti, hamda notog'ri javoblarga manfiy og'irlik koefitsiyenti beriladi. Koefitsiyentni kiritish uchun kursorni savol matniga qo'yib, **Указатьвес** tugmasi bosiladi. Bunday holda sizga sonli qiymatlar to'plami taklif etiladi. Ushbu to'plamni tahrirlash orqali savolning og'irlik koefitsiyentini belgilash mumkin. Barcha musbat koefitsiyentlarning yig'indisi har doim 100 % ni tashkil etishi lozim. Agar summa manfiy bo'lsa, u nolga aylantiriladi. Agar og'irlik koefitsiyentini olib tashlash kerak bo'lsa, **Убратьвес** tugmasidan foydalanish mumkin.

6. Спропущеннымсловом. Ushbu savol varianti qisqa ko'rinishda beriladi. O'qituvchi ixtiyoriy jumlani kiritadi, so'ng kiritilgan jumladagi ixtiyoriy so'zni tanlab oladi hamda **Вопросы** menyusidagi **Пропуск** opsiyasini tanlaydi. Natijada talaba ushbu so'z o'rniga ekranda _____ simvolini ko'radi. Uning vazifasi jumladagi o'sha so'zni to'g'ri kiritishdan iborat bo'adi.

3,4,5 tipdagi savollarning har bir javob variantida o'qituvchi o'zining izohi kiritishi mumkin. Bu izohlar talabaning javob variantini tanlashida qulaylik yaratadi. Demak izohni kiritish uchun kerakli javob satri ustiga kursor keltiriladi hamda **Комментарий** tugmasi bosiladi.

1.4. Masalaning qo'yilishi

iSpring dasturida “Masofaviy ta’lim texnologiyalari va vositalari” fanidan masofaviy ta’lim kurslari uchun nazoratlarni tashkil qilish. Vazifalarni bajarish.

Bunda quydagilar talab qilinadi:

-masofaviy ta’lim texnologiyalari va vositalari faniga oid adabiyotlarni o’rganib chiqish;

-masofaviy ta’lim kurslarida yaratuvchi dasturiy vositalarni tahlil qilish;

-masofaviy ta’lim texnologiyalari va vositalari fanidan masofaviy talim testlarini iSpring dasturida yaratish;

-natijalarni tahlil qilish va qo’llash;

II-BOB. Asosiy qism.

2.1. ISpring dasturida ishlash va funksiyalari

XXI asr fan texnika, ta'lim, meditsina, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda katta o'zgarishlar olib kirdi. Hayotimizni barcha sohalariga axborot texnologiyalarini joriy qilinishi, fan texnika sohasidagi yangiliklarni sekund sayin yaratilishi, dunyoda axborotlarni chegara bilmay qolganligi insoniyat ongini yana bir daraja ko'tarilib rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. E'tibor bersak, axborot asri deb atalmish ushbu asrda tug'ilayotgan farzandlarimiz aql-idrok jihatdan ustunroq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bunday yoshlarga shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda ta'lim-tarbiya berish, ularni mustaqil fikrlaydigan, o'z fikrini mustaqil ayta oladigan qilib tarbiyalash, ularni shaxsini rivojlantirish uchun ta'lim sohasida ham o'zgarishlarni talab qilmoqda. An'anaviy o'qitishdan zamonaviy o'qitish, ya'ni yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitishning yangi axborot texnologiyalari asosida o'qitishga o'tish zamon talabidir. O'quv jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish natijasida ta'lim maqsadlari belgilanadi yoki loiyhalanadi, kutilayotgan natija-ijobiy sifat o'zgarishi kafolatlanadi, o'quv jarayoning takrorlanuvchi sikli yaratiladi.

O'quv maqsadlarini texnologik usulda loyihalashda bosh, etakchi holat to'la-to'kis aniqlangan, identifikatsiyalashgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqishdan iborat. Bu maqsadlarining qanchalik darajada amalga oshgani va erishilgani haqida fikr yuritish uchun ularni qat'iy va aniq o'lchashmumkin bo'lgan natija-topshiriqlarga aylantirish zarur. O'quv jarayonini texnologiya asosida tashkil etishda nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish, o'qitish maqsadlarini aniqlash bilan uzviy bog'liq holda amaga oshiriladi. Bu o'z navbatida ta'lim texnologiyasini joriy etishning tamoyili, qoidalari, mexanizmlariga mos tushadi, erishish mumkin bo'lgan pirovard natija oldindan belgilab qo'yiladi. SHuning uchun o'quv mqsadlari aniqlashtirigach, unga mos ravishda nazorat topshiriqlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Didaktlarni fikri va amaliyotning ko'rsatishicha, o'quv maqsadlarining, erishiladigan natijasi aniq va osonroq ifodalaydigan shakllardan biri- test topshiriqlaridir.


Testlarni turkmlashda ularni qo'llash maqsadi va vazifalariga asoslanib, psixologik testlardan boshqa barcha testlarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

- intellektual rivojlanish darajasini aniqlashtiruvchi testlar;
- pedagogik testlar;
- muayyan kasbga yaroqliligini aniqlovchi testlar.

Pedagogik testlarni kompyuter yordamida avtomatlashtirilgan holda o'tkazish uning asosiy afzalliklaridandir.

Kompyuter yordamida onlayn taqdimotlar va elektron o'quv kurslarini yaratuvchi zamonaviy dasturlardan biri *iSpring Suite* dasturlar to'plamidir. *iSpring Suite* dasturlar paketiga *iSpring Pro*, *iSpring QuizMaker*, *iSpring Kinetics* jamlangan. Bu dasturlardan *iSpring QuizMaker* dasturi audio, video fayllar, tasvir va formulalar yordamida interaktiv testlar va anketalar yaratadi.

Interaktiv testlarni *iSpring QuizMaker* dasturi yordamida tuzish uchun kompyuterga *iSpring Suite* dasturi bilan Adobe Flash (operatsion tizim razryadiga ko'ra 32 va 64 bitli) dasturi o'rnatilishi talab etiladi.dastur o'rnatib bo'lingach *Пуск*menyusidan *Всепрограммы*bo'limida *iSpring Suite* tanlanadi va natijada 1-rasmdagi oyna paydo bo'ladi.




Rasm1.

Bundan *iSpring QuizMaker* dasturi tanlanishi bilan 2-rasmdagi oyna ochiladi.



Рasm 2.

Bu oynadan *Sozdat novyy test* bo‘limini tanlasak pedagogik testlarni tuzish uchun



oyna ochiladi(3-rasm).

Рasm 3.

Bu oyna dasturning ishchi oynasi hisoblanadi. Ishchi oynaning *Dobavit test* bo‘limidan test yaratish amali boshlanadi. Ushbu bo‘limda pedagogik testlar turlarining 11ta turi keltirilgan ularni kerakligini tanlab test tuzishimiz mumkin. Ular quyidagilar:

1. Verno/neverno(to‘g‘ri/noto‘g‘ri) test turi –bunda savol berilib *to‘g‘ri* yoki *noto‘g‘ri* javobini tanlanadi;
2. Odinochniy vibor(bitta javobni tanlash) – bir necha variatdan kerakli javobni tanlash;
3. Mnojestvenniy vibor(bir necha javobni tanlash);
4. Vvod stroki(satr kiritish) – javobni satrga kiritish yo‘li bilan javob berish;

5. Sootvetstvie(mos keltirish) – savollarni javoblariga mos keltirib qo'yish orqali javob berish;

6. Poryadok (tartib) – javobni kerakli tartibga keltirib javob berish;

7. Vvod chisla(sonni kiritish) – satrga savol javbiga mos sonni kiritib javob berish;


8. Propuski (tushirib qoldirilgan) –tushirib qoldirilgan so'zlarni kerakli joyga qo'yib yozish;

9. Vlojenne otveti(jamlagan javoblar)–jamlangan javoblar ichidan to'g'ri javobni tanlash orqali javob berish;

10. Bank slov(so'zlar ombori) –so'zlar omboridan kerakli so'zlarni to'g'ri ketma ketlikda qo'yish orqali javob berish. Bunda so'zlar omboriga so'zlarni ham kiritish kerak bo'ladi.

11. Aktivnaya oblast (faol soha) –rasmda aktiv sohani tanlab javob beriladi. Bunda rasmning biror sohasini tanlash kerak bo'lgan savol kiritiladi.


Test tuzishda ana shu testlar turini tanlab unga mos savollar berib, javobini ham kiritish kerak bo'ladi. Misol tariqasida informatika fanidan bitta test tuzib ko'raylik:



Rasm 4.

Birinchi qadam biz ko'rib turganimizdek dasturda hamma so'zlar ruschada berilgan. Ularni o'zbekchaga o'tkazib olishimiz ham mumkin. Dasturni ishchi oynasida **Test** bo'limidan **Nastroyki** bandini tanlaymiz. SHunda oyna ochiladi (4-rasm). Oynaning chap bo'lmidan **Nadpisi** bandini tanlaymiz. **Soobu'enie/knopka** ustuniga tegmagan holda **Nadpis** ustuniga birinchi ustunga berilgan so'zlarni mosiga o'zbekcha so'zlarni kiritib tahrirlashimiz mumkin. Natijada testimiz o'zbekcha ko'rinishga keladi.


Ikkinchi qadamda kerakli test turini **Dobavit vopros** bo'limidan tanlaymiz. Misol uchun verno/neverno turi. SHunda dastur oynasi quydagicha ko'rinishga keladi (5-rasm).



Rasm 5.

Ushbu oynaning **vopros** oynachasiga savol kiritib, unga ko'ra **otvet** oynasiga ikkita javob kiritib, savolga mos to'g'ri javobni tanlab qo'yiladi. Dastur oynasining o'ng qismida **Izobrajenie, Zvuk, Video** yozuvi turibdi shular yordamida fayllardan tasvir, formula, ovoz, videolar tanlab savollar ham tuzish imkoniyati mavjud. SHu tarzda har xil test turlaridan tanlab testlarni yaratish mumkin. Uchinchi qadam. Test tuzib bo'lingandan so'ng uni sozlash kerak bo'ladi. Umumiy ball berish, har bir savolga necha ball berish, testni davomiyligi va h.k. buning uchun yana **Nastroyki** bo'limiga kiramiz(4-rasm). Bu oynaning chap oynasidagi bo'limlarga kirib testerimizni sozlab olamiz.

To'rtinchi qadam dastur oynasining **Test** bo'limidan **Publikovat** bandini tanlaymiz va natijada oyna ochiladi(6-rasm).



Рasm 6.


Yaratgan testimizni to'rt xil ko'rinishda yaratishimiz mumkin. Web sahifa, iSpring Onlain, LMS, Word sahifasi. Undan keyin test formatini HTML, exe, Zip arxivni tanlashimiz, tester nomi, qo'llanish ko'lami, saqlanadigan o'rni, fayl nomi va flesh-roluk xususiyatlarini tanlab **Publikovat** tugmasini bosamiz.

YUqorida keltirilgan testdan ko'rinib turibdiki, bu test an'naviy testlarga qaraganda bu testda bir xillik bo'lmaydi va talabalarga bir muncha qiziqarliroq tarzda testlar beriladi. Undan tashqari bu interaktiv testlarni rasm, ovoz va formulalar yordamida testlarni tuzish imkoniyati mavjudligi ularni yanada qiziqarli va qolaversa


talabani katta intuziazm bilan ishlashga chorlaydi. Oddiy testlardan chegaralangan yo‘nalishlar foydalanib test nazorati o‘tkazishi mumkin edi, misol uchun musiqa yo‘nalishi talabalari uchun faqat nazariyadan savollar berish mumkin edi, bu dasturda esa ovozlar qo‘yish yordamida test tuzish imkoniyati borligi biror bir musiqadan parcha qo‘yib savollar tuzish imkoniyatini yaratadi. Boshqa yo‘nalishlar;informatika, matematika, fizika, biologiya, geografiya va h.k. lar uchun ham juda qiziqarli, interaktiv testlar tuzish imkoniyati mavjud. Undan tashqari testni kompyuter tarmoqlari orqali ham o‘tkazish imkoniyati va elektron pochta orqali yo‘llab yuborish imkoniyatlari mavjudligi hozirgi zamonaviy ta’lim talablariga ham javob bera oladi.

2.2. Masofaviy ta'lim kursida foydalanuvchilarni iSpring dasturida test asosida baholash


2.2.1 ISpring dasturida tuzilgan testimiz quyidagi ko'rinishda bo'ladi. Vaqtni chegaralasa ham chegaralamasa ham bo'ladi.




2.2.2 Savolni o'qib javobni quydagicha belgilaymiz.



2.2.3 Belgilangan javobingizdan keyin ekranga “to’g’ri” yoki ”noto’g’ri” degan yozuv chiqadi va OK tugmasini belgilasangiz keying savolga o’tadi.



2.2.4 Testni ishlab bo'lgach sizning ishlagan test natijangiz quydagi ekranga chiqadi va sizning yig'gan ballaringizni ko'rsatib beradi.



The screenshot shows a web application window titled "TEST 1". The main content area has a light green header with the text "TEST 1". Below the header, the title "Test natijasi" is displayed. A green checkmark icon is shown next to the text "Tabriklayman, siz testdan o'tdingiz." (Congratulations, you passed the test). Below this, the test details are listed: "Talaba: mmmmmm", "Test: TEST 1", "Jami savol: 20", "Jami ball: 200", "Sizning balingiz: 140 70% (70 dan 100)", "O'tish bali: 112 56%", and "Davom etish vaqti: 8m 18s". A link "Chiqarish" is visible in the top right corner. At the bottom, there is a button "Testni ko'rib chiqmoq" and a link "Tafsilotlarni ko'rsatish". The bottom of the window shows a video player interface with a progress bar and a "MUTE" button.

TEST 1

Test natijasi [Chiqarish](#)

 Tabriklayman, siz testdan o'tdingiz.

Talaba: **mmmmm**
Test: **TEST 1**

Jami savol: **20**
Jami ball: **200**
Sizning balingiz: **140** 70% (70 dan 100)
O'tish bali: **112** 56%
Davom etish vaqti: **8m 18s**

[Tafsilotlarni ko'rsatish](#)


[Testni ko'rib chiqmoq](#)

MUTE 25:00:00

2.3. Moodle da test tuzish texnologiyasi.

Moodle da test tuzish usuli

Moodle da test tuzish uchun dastlab IP/http/192.168.8.9/moodle/ adres orqali Moodle ga kiramiz. Chiqqan darchadan o'zimizga kerak bo'lgan kursni tanlaymiz. Masalan Axborot texnologiyalari kursini tanlab unda test savollarini tuzamiz.



Moodle da test tuzishni 2 ta usuli bor.

1. Boshqarishbloki orqali
2. Menyuning "Kurs elementini qo'shish" bolimi orqali

Ikkala usulda ham test savollarini kiritishdan oldin quyidagi ketma-ketlikni bajarish lozim:

- test parametrlarini o'rnatamiz
- test savollarini kiritamiz
- tuzilgan savollarni testga(kategoriyaga) joylashtiramiz
- zarur bo'lganda testni va test parametrlarini tahrirlaymiz.

Dars vaqtida o'tkaziladigan testlar albatta dars jadvaliga qo'yilgan va kompyuter xonalarida o'tkaziladigan fanlar uchun qulaydir. Darsdan tashqarida o'tkaziladigan testlarni quyidagi jarayonlar ketma-ketligi orqali o'tkazish tavsiya etiladi.

1. O'qituvchi testni tashkil qilish va o'tkazish parametrlarini tarmoqdagi o'zining o'quv kursiga joylaydi.
2. Oqituvchi talabalarga test mazmunini, test o'tkaziladigan joyini, test

o'tkazish vaqtini va sanasini, urinishlar soni va baholash usulini e'lon qiladi.


3. Test tugagandan keyin o'qituvchi test natijalarini tahlil qiladi.

Test o'tkazilayotgan paytda o'qituvchi test o'tkaziladigan xonada bo'lishi shart emas, chunki bu jarayonda talaba o'zi mustaqil fikrlab testni yechishi lozim.

Moodle da test tuzish uchun dastlab kategoriya yaratamiz, yaratilgan kategoriyaga test savollarini alohida-alohida joylaymiz. Test savollarini alohida yaratish savollarni variantlarda takrorlanmasligini ta'minlab beradi.


Demak:

1. Kategoriya ochiladi
2. Test savollari tuziladi
3. Test savollari testga o'tkaziladi




Test tuzish texnologiyasi.


1-usul. Bu usulda test savollarini tuzish uchun «**Boshqarish**» blokidagi «**Savollar**» bandini tanlaymiz.



«Savollar» menyusining «Yangi savol yaratish» bo'limini «Tanlash» darchasidan test turini tanlaymiz




Yangi test tuzish uchun test savollarini kiritamiz:




Moodleda testlarni quyidagi turlari bor:

- Hisoblanayotgan
- Ta'riflash
- Esse
- Mostlikka
- Yopiq shaklda (ko'plikdagi tanlov)
- Qisqa javob
- Raqamli
- Moslik boyicha tasodifiy savolni topish
- To'g'ri/ noto'g'ri


2-usul. Buning uchun ushbu oynaning o'ng burchagidagi «Tahrir qilishni» bo'limini tanlaymiz



Keyin «Kurs elementini qo'shish» darchasidan «Test » ni tanlaymiz. Bu darcha quyidagi ko'rinishda bo'ladi:



Natijada test parametrlarini to'ldiruvchi shakl ochiladi va u quyidagi ko'rinishda bo'ladi.



Biz bu oynada yangi test savollari uchun nom kiritamiz, bu nom biz yaratmoqchi bo'lgan testni nomi bo'ladi. Keyingi ishlar davomida biz shu nom ostida yangi test savollarini qo'shishimiz mumkin bo'ladi.

Nomni kiritganimizdan so'ng oynamizning **«Muqaddima»** degan darchasiga tuzmoqchi bo'lgan testimizni parametrlarini o'rnatamiz. Masalan bu test qanday tipdagi test bo'ladi, qaysi sohaga tegishliligini va boshqalarni kiritib o'tamiz:

«**Vaqt**ni chegaralash» bo'limida test sinovini boshlash vaqtini, testni yakunlash vaqtini

«**Ko'rsatish**» bo'limida bitta sahifada joylashadigan savollar sonini;


«**Urinishlar**» bo'limida urinishlar sonini;

«**Baholar**»bo'limid baholash usulini, jarima solish tartibini;

«**Himoya**» bo'limida bitta asosiy ekranda ishlash va aksincha holtlarni kiritamiz.

Dastur oynasining pastki qismidagi bo'limlardan bittasini tanlash **«Saqlash va kursga qaytish»**, **«Saqlash va ko'rsatish»**, **«Bekor qilish»**orqali ishni davom qildiramiz.

«Saqlash va kursga qaytish» parametri tanlansa quyidagicha oyna hosil bo'ladi.



Bu oynada biz yaratmoqchi bo'lgan test nomi **«Mavzular sarlavhasi»** menyusida paydo bo'ladi, ya'ni yaratmoqchi bo'lgan testlarimizni biz shu nom ostida kirib yaratamiz.

«Saqlash va ko'rsatish» parametrini tanlasak quyidagicha oyna hosil bo'ladi.

Moodle UrSU ► IAT101 ► Testlar ► Axborot ► Tahrir qilish Test

Testni yarat

Muqadima Natijalar Ko'rib chiqish Tahrir qilish

Test Savollar Kategoriyalar Import Eksport

Bu savol javobi(quiz)dagi savollar

Hozircha birorta savol qo'shilmagan

Savollar banki(ombori)

Kategoriya nomi Informatika va AT uchun ilk tanlangan holat (8)

☒ Quyi kategoriyalarda (subkategoriyalar, podkategoriyalar) joylashgan savollarni aks ettirish

☐ Eski savollarni ham ko'rsatish

☐ Show question text in the question list

Informatika va AT kontekstda birgalikda ishlatiluvchi savollar uchun ilk tanlangan kategoriya.

Yangi savol yaratish Tanlash... ?

Sort by type, name

Amal	Savol nomi	Tur
<< >> < > X	Hisoblanayotgan test	4/7
<< >> < > X	Hisoblanayotgan test	4/7
<< >> < > X	Ta'riflash testi	4/7
<< >> < > X	Moslikni tekshirish testi	4/7
<< >> < > X	Yopiq shakldagi test.	4/7
<< >> < > X	Raqamli test	4/7

Tanlangan kategoriya uchun yangi savolni yaratish uchun dastlab yaratiladigan testni turi tanlanadi.

Kategoriya nomi Informatika va AT uchun ilk tanlangan holat (8)

☒ Quyi kategoriyalarda (subkategoriyalar, podkategoriyalar) joylashgan savollarni aks ettirish

☐ Eski savollarni ham ko'rsatish

☐ Show question text in the question list

Informatika va AT kontekstda birgalikda ishlatiluvchi sa tanlangan kategoriya.



Yangi savol yaratish Tanlash... ?

Tanlash...

Amal	Savol nomi
<< >> < > X	Hisoblanayotgan
<< >> < > X	Ta'riflash
<< >> < > X	Esse
<< >> < > X	Hisoblanayotgan
<< >> < > X	Moslikka
<< >> < > X	Embedded answers (Cloze)
<< >> < > X	Yopiq shaklda (ko'plikdagi tanlov)
<< >> < > X	Qisqa javob
<< >> < > X	Raqamli
<< >> < > X	Moslik bo'yicha tasodifiy savol
<< >> < > X	To'g'ri/noto'g'ri

Buning uchun hosil bo'lgan oynadagi yangi savol yaratish do'limini tanlash oynasiga kiriladi va shu joydan yaratilayotgan testni turi tanlanadi.

“Bekor qilish” parametrini tanlasak bosh sahifaga qaytiladi va unda quyidagicha oyna hosil bo'ladi.



Курс: Masofaviy ta'lim tex...

localhost/course/view.php?id=2

Сервисы interaktivlik tushunchi

Calendar

Май 2016

Вс	Пн	Вт	Ср	Чт	Пт	Сб
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30	31				

Легенда событий

[[hideglobalevents]]

[[hidecourseevents]]

[[hidegroupsevents]]

[[hideuserevents]]

Videokonferentsiyalarni tashkil etish yuzasidan test

29 Апрель - 5 Май

Ma'ruza-10. Mustaqil ta'limni tashkil etish va o'zlashtirish monitoringi texnologiyasi.

1-topshiriq

Test

Test

So'rov: Masofaviy ta'lim o'qituvchisi kim?

So'rov: Masofaviy ta'lim o'qituvchisi qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak?

Masofaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari fanidan taqdimotlar

Masofaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari fanidan tayanch tuchunchalar

Masofaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari fanidan seminar

6 Май - 12 Май

Ma'ruza-11. Talabalar bilimni baholashning kompyuter tizimi va o'zlashtirish monitoringini tashkil etish.

Laboratoriya mashg'uloti-6. iSpring dasturida yaratilgan fayllarni YouTubega joylashtirish.

Masofaviy ta'limdan suhbat

Xulosa

Biz Ispring dasturida ishlash mobaynida dasturning bir qancha qulaylik va avzalliklari bilan tanishib chiqdik. Bu ayniqsa AKT sohasida keng qo'llanilyapdi ya'ni masofaviy ta'limda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi noan'anaviy o'quv metodlarida qo'llanilyapdi. ISpring dasturida nazoratlarni tashkil qilishda har bir o'quvchi ishga individual tarzda yondosha oladi va o'qituvchining vaqti tejaladi. Dasturning o'zi baholaydi. Baxolash mezonini har bir o'qituvchi me'yoriy hujjatga mos ravishda o'zgartira oladi, bu esa ta'lim samaradorligini oshirishga sabab bo'la oladi. Avzalliklaridan ya'na biri shundaki o'quvchi hohlagan paytida hohlagan joyida turib internet orqali imtixon topshira oladi.

Zamonaviy o'quv kommunikatsion texnologiyalarining ta'lim jarayoniga tadbqiqilib borilishi qadrlar tayyorlashning sifat ko'rsatkichi ya'nada oshadi.


Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A. Abduqodirov, A. Pardaev “Masofali ta’lim nazariyasi va amaliyoti”, T. 2010y, 136 B.
2. Fanning o‘quv-metodik majmuasi/O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2009-yil.
3. T. Madumarov, M. Kamoldinov “Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta’lim tarbiya jarayonida qo‘llash”, T. “Talqin”, 2012yil.
4. <http://www.ispringsolutions.com>
5. www.ispring.ru


Ilovalar.

Biz Ispring dasturida ishlash mobaynida dasturning bir qancha qulaylik va avzalliklari bilan tanishib chiqdik. AKT sohasida keng qo'llanilyapdi ya'ni masofaviy ta'limda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi noanaviy o'quv metodlarida qo'llanilyapdi Ispring dasturida nazoratlarni tashkil qilishda har bir o'quvchi ishga individual tarzda yondosha oladi va o'qituvchining vaqti tejaladi.


1-ilova ISpring dasturida tuzilgan testimiz quyidagi ko'rinishda bo'ladi. Vaqtni chegaralasa ham chegaralamasa ham bo'ladi



2-ilova. Savolni o'qib javobni quydagicha belgilaymiz



3-ilova.Belgilagan javobingizdan keyin ekranga “to’g’ri” yoki ”noto’g’ri” degan yozuv chiqadi va OK tugmasini belgilasangiz keying savolga o’tadi



4-ilova. Testni ishlab bo'lgach sizning ishlagan test natijangiz quydagi ekranga chiqadi va sizning yig'gan ballaringizni ko'rsatib beradi.

TEST 1

Test natijasi [Chiqarish](#)

 **Tabriklayman, siz testdan o'tdingiz.**

Talaba: **mmmmmm**
Test: **TEST 1**

Jami savol: **20**
Jami ball: **200**
Sizning balingiz: **140** 70% (70 dan 100)
O'tish bali: **112** 56%
Davom etish vaqti: **8m 18s**

[Tafsilotlarni ko'rsatish](#) ▼

[Testni ko'rib chiqmoq](#)

0
2

MUTE 250000